

GLOBAL AXBOROT OQIMLARI SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIY
XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI

Mo'minov Azamat Solijonovich

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22743286>

Annotatsiya. Maqolada global axborot oqimlari sharoitida yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlash muammosi ijtimoiy-falsafiy tahlil metodologiyasi asosida tadqiq etilgan. Muallif ma'naviy xavfsizlikni statik himoya holati emas, balki ijtimoiy subyektning aksiologik yadrosini saqlab qolgan holda tashqi axborot ta'sirlarini tanqidiy qayta ishlash qobiliyati sifatida dinamik tarzda kontseptuallashtiradi. Ishda madaniy gomogenizatsiya, glokalizatsiya, "yumshoq kuch" texnologiyalari, axborot buzilishi hamda algoritmik filtrlashning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilingan. Natijada ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashning to'rt komponentli tizimli modeli ishlab chiqilgan va uning samarali kafolati izolyatsion siyosat emas, balki milliy mazmunning raqobatbardoshligi ekanligi asoslangan.

Kalit so'zlar: ma'naviy xavfsizlik, global axborot oqimlari, yoshlar, axborot globallasuvi, yumshoq kuch, ommaviy madaniyat, axborot buzilishi, filtr pufagi, glokalizatsiya, milliy identiklik, media savodxonlik, aksiologik yadro.

Аннотация. В статье на основе методологии социально-философского анализа исследуется проблема обеспечения духовной безопасности молодежи в условиях глобальных информационных потоков. Автор динамически концептуализирует духовную безопасность не как статическое состояние защищенности, а как способность социального субъекта критически перерабатывать внешние информационные воздействия при сохранении своего аксиологического ядра. В работе теоретически анализируется влияние культурной гомогенизации, глокализации, технологий «мягкой силы», информационных искажений и алгоритмической фильтрации на

мировоззрение молодежи. В результате разработана системная четырехкомпонентная модель обеспечения духовной безопасности и обосновано, что ее эффективной гарантией является не изоляционистская политика, а конкурентоспособность национального контента.

Ключевые слова: духовная безопасность, глобальные информационные потоки, молодежь, информационная глобализация, мягкая сила, массовая культура, информационные искажения, фильтр-пузырь, глокализация, национальная идентичность, медиаграмотность, аксиологическое ядро.

Abstract. The article examines the problem of ensuring the spiritual security of young people in the context of global information flows based on a socio-philosophical analytical methodology. The author conceptualizes spiritual security dynamically, not as a static state of protection, but as the ability of a social subject to critically process external information influences while preserving its axiological core. The study theoretically analyzes the impact of cultural homogenization, glocalization, “soft power” technologies, information distortion, and algorithmic filtering on the worldview of young people. As a result, a systematic four-component model for ensuring spiritual security has been developed, and it is substantiated that its effective guarantee is not an isolationist policy, but rather the competitiveness of national content.

Keywords: spiritual security, global information flows, youth, information globalization, soft power, mass culture, information distortion, filter bubble, glocalization, national identity, media literacy, axiological core.

KIRISH

Globallashuv jarayonining hozirgi bosqichida axborot makoni davlat chegaralaridan mustaqil ravishda faoliyat yurituvchi yagona, uzluksiz va nihoyatda intensiv oqimga aylandi. Ushbu holat ijtimoiy-falsafiy tafakkur oldiga tubdan yangi savolni qo'yadi: agar madaniy ma'nolar ishlab chiqarish va tarqatish jarayoni milliy institutlarning nazoratidan chiqib ketgan bo'lsa, jamiyat o'z aksiologik yadrosining uzluksizligini qanday ta'minlaydi? R.Robertson asoslagan globallashuv nazariyasi

mazkur jarayonni “dunyoning yagona makon sifatida siqilishi” va ayni paytda global miqyosga nisbatan ong darajasining kuchayishi sifatida tavsiflaydi [9]. A.Appaduray esa global madaniy oqimlarni beshta o‘zaro nomutanosib “manzara” etnomanzara, mediamanzara, texnomanzara, moliyaviy manzara va g‘oyaviy manzara tarzida differensiatsiyalab, ularning nomutanosibligi aynan mahalliy madaniyatlarda keskinlik manbai bo‘lishini ko‘rsatib beradi [5]. Mazkur kontekstda “ma’naviy xavfsizlik” kategoriyasining ilmiy mazmunini aniqlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-falsafiy adabiyotda ushbu tushuncha ko‘pincha reaktiv, ya’ni himoyaviy ma’noda — tashqi g‘oyaviy ta’sirlardan muhofaza qilish tarzida talqin qilinadi. Biroq bunday yondashuv metodologik jihatdan cheklangan bo‘lib, u ma’naviyatni passiv obyekt sifatida taqdim etadi. Bizning nuqtai nazarimizcha, ma’naviy xavfsizlik — bu ijtimoiy subyektning o‘z identikligini konstitutsiyalovchi qadriyatlar yadrosini saqlab qolgan holda tashqi axborot ta’sirlarini tanqidiy tanlash, qayta ishlash va integratsiya qilish qobiliyatidir. Ya’ni bu - to‘siq emas, balki selektiv o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan tirik membrananing xususiyati. Muammoning yoshlar guruhiga nisbatan alohida keskinlashuvi bir necha obyektiv omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, yoshlik davri shaxs identikligining shakllanish bosqichi bo‘lib, E.Erikson terminologiyasida bu - “identiklik va rollar chalkashligi” o‘rtasidagi normativ inqiroz davridir. Bu bosqichda aksiologik tizim hali yakuniy mustahkamlanmagan, demak, tashqi ta’sirlarga nisbatan sezuvchanlik maksimal darajada bo‘ladi. Ikkinchidan, aynan yoshlar global raqamli platformalarning eng faol iste’molchisi hisoblanadi va shu bois ular global kontent oqimining birlamchi qabul qiluvchisiga aylanadi. Uchinchidan, yoshlar ijtimoiy tajribasining nisbiy cheklanganligi tanqidiy filtrlash imkoniyatini obyektiv ravishda toraytiradi.

J.Nay ilmiy muomalaga kiritgan “yumshoq kuch” (soft power) konsepsiyasi global axborot oqimlarining siyosiy-falsafiy mohiyatini tushunish uchun kalit vazifasini bajaradi [3]. Nayning ta’kidlashicha, zamonaviy dunyoda ta’sir o‘tkazishning eng samarali usuli majburlash yoki iqtisodiy rag‘batlantirish emas,

balki jozibadorlik orqali afzalliklarni shakllantirishdir. Bu shuni anglatadiki, madaniy mahsulot — film, musiqa, video kontent, o'yin — neytral ko'ngilochar hodisa bo'lmay, balki muayyan hayot tarzi modelini, muvaffaqiyat mezonini va axloqiy koordinatalar tizimini uzatuvchi vositadir. Aynan shu sababli ma'naviy xavfsizlik masalasi milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Global axborot oqimining sifat tarkibini tahlil qilishda K.Uordl va H.Derakhshan ishlab chiqqan “axborot buzilishi” (information disorder) tipologiyasi metodologik jihatdan samarali hisoblanadi [6]. Mualliflar noto'g'ri axborotning uch turini farqlaydilar: dezinformatsiya (ataylab yaratilgan yolg'on), misinformatsiya (zarar yetkazish niyatisiz tarqatilgan xato) va malinformatsiya (zarar yetkazish maqsadida oshkor etilgan haqiqiy ma'lumot). Ushbu farqlanish muhim, chunki har bir turga qarshi turli xil mexanizmlar talab etiladi. S.Vosug'i, D.Roy va S.Aral tomonidan o'tkazilgan yirik empirik tadqiqot esa yolg'on axborot ijtimoiy tarmoqlarda haqiqiy axborotga qaraganda sezilarli darajada tezroq va kengroq tarqalishini statistik jihatdan tasdiqladi [8]. Bu - axborot makonining tabiiy o'z-o'zini tartibga solish qobiliyatiga umid qilish asossiz ekanligini ko'rsatadi. Muammoning yana bir muhim jihati algoritmik vositachilik bilan bog'liq. Zamonaviy platformalar foydalanuvchiga kontentni neytral tarzda taqdim etmaydi - ular uni personallashtirilgan tavsiya tizimi orqali filtrlaydi. E.Parayzer tavsiflagan “filtr pufagi” va u bilan bog'liq “exo-kamera” effekti natijasida shaxs asta-sekin o'z mavjud qarashlarini tasdiqlovchi axborot muhitida qamaladi. Falsafiy nuqtai nazardan bu Yu.Habermas asoslagan ratsional-tanqidiy jamoatchilik makonining parchalanishi demakdir: umumiy muhokama maydoni o'rniga o'zaro kesishmaydigan, har biri o'z haqiqatiga ega bo'lgan segmentlar paydo bo'ladi. Yoshlar uchun bu holat ayniqsa xavflidir, chunki u dunyoqarashning shakllanish bosqichida muqobil nuqtai nazar bilan uchrashish imkoniyatini cheklaydi. Madaniy o'lchovda global axborot oqimlari gomogenizatsiya tendensiyasini kuchaytiradi. G.Ritser tavsiflagan “makdonaldlashuv” jarayoni - samaradorlik, hisoblanuvchanlik, bashoratlilik va nazorat tamoyillarining madaniy sohaga

ko'chirilishi mahalliy madaniy shakllarning standartlashuviga olib keladi. Biroq R. Robertson taklif etgan "glokalizatsiya" konsepsiyasi bu jarayonning bir tomonlama emasligini ko'rsatadi: global shakllar mahalliy kontekstda qayta talqin qilinadi va gibril madaniy mahsulotlarni vujudga keltiradi [9]. Demak, ma'naviy xavfsizlik strategiyasi global oqimni to'sishga emas, balki uni milliy madaniy kodda qayta ishlash salohiyatini oshirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston sharoitida mazkur muammo o'ziga xos tarixiy-madaniy kontekstda namoyon bo'ladi. Mamlakatimizda ma'naviyat kategoriyasi davlat siyosatining mustaqil yo'nalishi maqomiga ega bo'lib, u milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va axloqiy tarbiya masalalarini birlashtiradi [2]. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularni zararli g'oyalar ta'siridan himoya qilish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash vazifalari alohida belgilangan [1]. Ayni paytda mazkur vazifalarni amalga oshirishning konkret ijtimoiy-falsafiy mexanizmlari yetarlicha nazariy asoslanmagan. Mavzu bo'yicha mavjud tadqiqotlar tahlili ikki asosiy yondashuvni ajratish imkonini beradi. Birinchi yondashuv proteksionistik xarakterga ega bo'lib, u cheklovchi va nazorat mexanizmlariga urg'u beradi. Ikkinchi yondashuv kompetentlikka asoslangan bo'lib, u shaxsning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishni birlamchi deb hisoblaydi. Bizningcha, ushbu yondashuvlarni qarama-qarshi qo'yish metodologik jihatdan noto'g'ri: ular ma'naviy xavfsizlik tizimining turli darajalariga taalluqli bo'lib, faqat o'zaro to'ldiruvchi tarzda samara beradi. S. Ergashbayev ta'kidlaganidek, yoshlarning ma'naviy-falsafiy dunyoqarashini yuksaltirish uzluksiz ta'lim tizimining tizimli vazifasi bo'lib, u epizodik chora-tadbirlar bilan cheklanmasligi kerak [4; 7]. 1. Global axborot ta'sirining kanallari va mexanizmlari. Tahlil global axborot oqimlarining yoshlar dunyoqarashiga ta'sir o'tkazish uchta asosiy kanalini ajratish imkonini beradi. Birinchisi — ko'ngilochar kontent kanali. Uning o'ziga xosligi ta'sirning yashirinligida: tomoshabin g'oyaviy xabarni emas, balki syujetni qabul qilayotganini o'ylaydi, biroq syujet bilan birga muayyan normativ modelni ham

o'zlashtiradi. Ikkinchisi — iste'mol kanali. Global brendlar shunchaki tovar emas, balki muvaffaqiyat va status ramzlarini sotadi, natijada shaxs qadri iste'mol qobiliyati orqali o'lchana boshlaydi. Uchinchisi - to'g'ridan-to'g'ri g'oyaviy kanal bo'lib, u siyosiy va diniy-ekstremistik mazmundagi maqsadli propagandani o'z ichiga oladi. Ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashning cheklovchi-administrativ mexanizmlari muayyan sharoitlarda zarur bo'lsa-da, ularning strategik samaradorligi bir qator obyektiv chegaralarga ega. Birinchidan, texnologik jihatdan to'liq filtrlash amalda erishib bo'lmas vazifadir. Ikkinchidan, taqiq psixologik jihatdan qiziqishni kuchaytirish effektini yuzaga keltiradi. Uchinchidan va eng muhimi, cheklash shaxsda tanqidiy tanlov ko'nikmasini shakllantirmaydi - u faqat tanlov vaziyatini kechiktiradi. Natijada himoyalangan muhitdan chiqqan shaxs tayyorgarliksiz holatda qoladi. Shu ma'noda proteksionizm taktik vosita bo'la oladi, ammo strategiya bo'la olmaydi.

Tadqiqotning maqsadi - global axborot oqimlari sharoitida yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida kontseptuallashtirish va ularning tizimli modelini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsad quyidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi: ma'naviy xavfsizlik kategoriyasining ilmiy mazmunini aniqlashtirish; global axborot oqimlarining yoshlar dunyoqarashiga ta'sir kanallarini tipologiyalashtirish; mavjud himoya mexanizmlarining samaradorlik chegaralarini baholash; kompleks modelni asoslash. Metodologik asos sifatida tizimli-strukturaviy, qiyosiy-madaniy, hermenevtik va aksiologik yondashuvlar majmuidan foydalanilgan.

Olib borilgan tahlil asosida ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashning to'rt komponentli modeli taklif etiladi. Normativ-huquqiy komponent axborot makonida faoliyat yuritishning huquqiy ramkalarini va platformalar mas'uliyatini belgilaydi; uning vazifasi taqiqlash emas, balki shaffof qoidalar o'rnatishdir. Institutsional-ta'limiy komponent tizimning yadrosi bo'lib, u uzluksiz ta'limning barcha bosqichlariga media savodxonlik va tanqidiy tafakkur modullarini integratsiya qilishni ko'zda tutadi [4; 10]. Kontent-ishlab chiqarish komponenti milliy

qadriyatlarni zamonaviy va raqobatbardosh formatlarda taqdim eta oladigan ijodiy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan, zero axborot makonida bo'shliq mavjud bo'lmaydi. Shaxsiy-refleksiv komponent esa shaxsda o'z axborot iste'molini ongli boshqarish qobiliyatini shakllantirib, ma'naviy xavfsizlikni tashqi nazoratdan ichki mas'uliyatga aylantiradi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin. Birinchidan, ma'naviy xavfsizlik kategoriyasini himoyaviy-statik ma'nodan dinamik-kompetentlik ma'nosiga qayta kontseptuallashtirish zarur: u tashqi ta'sirlarning yo'qligi holati emas, balki subyektning o'z aksiologik yadrosini saqlagan holda ushbu ta'sirlarni tanqidiy qayta ishlash qobiliyatidir. Ikkinchidan, global axborot oqimlarining ta'siri ko'ngilochar, iste'mol va bevosita g'oyaviy kanallar orqali amalga oshadi. Ularning eng samarali qismi emotsional darajada ishlaydi, shu bois faqat ratsional tushuntirishga tayangan qarshi ta'sir strategiyasi yetarli natija bermaydi. Uchinchidan, cheklovchi-administrativ mexanizmlar texnologik, psixologik va pedagogik jihatdan obyektiv chegaralarga ega bo'lib, ular taktik vosita sifatida zarur bo'lishi mumkin, ammo ma'naviy xavfsizlikning strategik asosi bo'la olmaydi. To'rtinchidan, taklif etilgan to'rt komponentli modelning asosiy tamoyili shundaki, komponentlardan birortasi mustaqil ravishda yetarli emas — samara faqat majmuiy ishlashda namoyon bo'ladi. Uzoq muddatli istiqbolda esa ma'naviy xavfsizlikning eng ishonchli kafolati milliy madaniy mahsulotning raqobatbardoshligidir: yoshlar milliy qadriyatlarni majburiyat sifatida emas, balki ongli tanlov sifatida qabul qilishi uchun ular zamonaviy va jozibador shaklda taqdim etilishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi / Sh. M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 416 b.
2. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch / I. A. Karimov. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

3. Nye, J. S. Soft Power: The Means to Success in World Politics / J. S. Nye.
– New York: PublicAffairs, 2004. – 191 p.
4. Ergashbayev, S. Uzluksiz ta'lim tashkil etish orqali yoshlarning ma'naviy-falsafiy dunyoqarashini yuksaltirish / S. Ergashbayev // Bulletin of Contemporary Researches: Multidisciplinary. – 2025. – Vol. 1, № 1. – P. 10–13.
5. Appadurai, A. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization / A. Appadurai. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1996. – 229 p.
6. Wardle, C. Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework for Research and Policy Making / C. Wardle, H. Derakhshan. – Strasbourg: Council of Europe, 2017. – 109 p.
7. Ergashbaev, S. O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish / S. Ergashbaev // Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – Т. 1, № 1. – С. 314–316.
8. Vosoughi, S. The Spread of True and False News Online / S. Vosoughi, D. Roy, S. Aral // Science. – 2018. – Vol. 359, № 6380. – P. 1146–1151.
9. Robertson, R. Globalization: Social Theory and Global Culture / R. Robertson. – London: SAGE Publications, 1992. – 211 p.
10. Mirzaolimjon o'g'li, M. M. Yangi O'zbekistonning ta'lim siyosati va universitetlarning yangi modellari / M. M. Mirzaolimjon o'g'li, E. Shohbozbek // Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. – 2025. – Т. 16, № 01. – В. 325–328.